

DUNYO MIQYOSIDA MIGRATSIYA TURLARI HAMDA UNDAGI MUOMMOLAR VA UNING O'ZBEKISTONGA TA'SIRI

Abduraufov Dilshod Muhammadi o'g'li

JIDU Xalqaro huquq fakulteti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyo miqyosida mavjud bo'lgan migratsiyaning turlari va uning aynan aholi migratsiyasi bilan bo'qliq jihatlarini O'zbekiston Respublikasiga ta'siri hamda bu bo'yicha tahlil va olimlarning qarashlarini bildirib boradagi mavjud muommolar va ularning ayrim jihatlarini aytib o'tib, so'ngra xulosa sifatida o'zimning shaxsiy fikrlarim va tafliklarimni bildirib o'tganman.

Kalit so'z: Migratsiya, mehnat migrantlari, Muhojirlar, Elementlar migratsiyasi, mahalliy aholi, ijtimoiy muammolar, Noqonuniy migratsiya, Boshqa davlatga borish omilli, XMT (Xalqaro mehnat tashkiloti), O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi migratsiya tadqiqotlari markazi, O'z davlatidan "qochish" omilli.

KIRISH

Ma'lumki hozirgi kunda nisbatan kambag'al yoki ish o'rirlari kam (yoki o'z aholisini to'liq ta'minlab berolmayotgan) davlat fuqorolari boshqa davlatga borib ishlash holatlari juda ko'p kuzatilmoqda. Ayni shu sabab migratsiya bilan bog'liq jihatlar o'z ahamiyatini kundan-kunga oshirib bormoqda, shu o'rinda men ushbu maqolamda bu boradagi umumiylar tushunchalar va migratsiya bilan bog'liq muommolarga to'xtalib o'taman.

Avvalo **Migratsiya** bu (*lotincha so'z hisoblangan migratio dan olingan bo'lib ko'chaman, joyimni o'zgartiraman degan ma'noni anglatadi*) shu o'rinda shuni aytishim mumkinki migratsiya deganda faqat insonlarni bir mamlakatdan boshqa hududga borib ishslashga borishi tushunilmaydi. Migratsiyaning butun dunyo miqyosida turli xil ko'rinishlari va ularning mazmun mohiyatini quydagicha ko'rib chiqamiz.

Butun dunyoda migratsiyasini quydagagi turlari mavjud bo'lib, bular;

- 1) aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi ya’ni **Aholi migratsiyasi**¹ deb atalib uning ma’nosи “Aholining yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo‘lib, unta kishilarning oddiy mexanik ko‘chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko‘p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi. aholini joylashishi, yerni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irqlar, tillar va xalqlarning paydo bo‘lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog‘liq” hisoblanadi.
 - 2) hayvonlarning yashash muhiti sharoiti yoki rivojlanish sikli o‘zgarishi bilan bir geografik hududdan ikkinchisiga ko‘chishi **Hayvonlar migratsiyasi**² deb atalib uning ma’nosи “bir-biridan uzoqda joylashgan va o‘zaro keskin farq qiladigan yashash muhitlari o‘rtasida hayvonlarning qonuniy ko‘chib yurishi. Hayvonlar migratsiyasi yashash joyida muhit sharoitining o‘zgarishi yoki rivojlanishning‘ har xil davrlarida hayvonning yashash muhiti sharoitiga talabining o‘zgarishi (ontogenetik migratsiya) bilan bog‘liq. Hayvon yashaydigan joyda yashash sharoitining o‘zgarishi ta’sirida sodir bo‘ladigan Hayvonlar migratsiyasi davriy (mavsumiy, sutkalik) yoki nodavriy bo‘lishiga aytildi”
 - 3) kimyoviy elementlarning yer qobig‘ida yoki yer yuzasida o‘z joyini o‘zgartirishi **Elementlar migratsiyasi**³ deb atalib uning ma’nosи “Yer po‘sti va yuzasida kimyoviy elementlarning o‘z joyini o‘zgartirishi va qayta taqsimlanishi. Bu terminni fanga A.Ye. Fersman kiritgan (1923). Elementlar migratsiyasi suyuqfaza (eritmalar, gidrotermal eritmalar, yer osti va yer yuzasidagi suvlar), gazsimon faza (vulkan gazlari va fumarollar, mineral buloqlar va neft konlari gazlari) va qattiq fazada (diffuziya va qayta kristallanish natijasida) sodir bo‘lishiga aytildi”
 - 4) energiyaning bir zarrachadan boshqasiga o‘tishi **Energiya migratsiyasi**⁴ deb atalib uning ma’nosи “Har qanday ko‘rinishdagi materiya, xususan, jism yoki jismlar tizimini tashkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o‘zaro va boshqalar zarralar bilan ta’sirlarining miqdoriy o‘lchovi. Xalqaro birliklar tizimida energiya xuddi ish kabi joulda; atom fizikasi, yadro fizikasi va elementar zarralar fizikasida esa elektronvolt on o‘lchanishiga aytildi”
- Yuqorida aytib o’tilgan migratsiyasining turlarini hammasi ham O’zbekiston uchun ta’siri (ko’proq muommoli jihatlari)ni haqida tahlil olib boraman.

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aholi_migratsiyasi haqida maqoladan olindi.

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hayvonlar_migratsiyasi haqida maqoladan olindi.

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Elementlar_migratsiyasi

⁴ https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=Energiya_migratsiyasi&action=edit&redlink=1

TAHLIL

Yuqorida aytib o'tilgan migratsiya turlaridan O'zbekiston Respublikasi uchun eng ahamiyatlisi menning nazаримда Aholi migratsiyasi deb bilaman, chunki O'zbekistonlik mehnat migrantlari soni o'rtacha 2,4 million kishini tashkil etishini O'zbekiston Respublikasini Tashqi mehnat migratsiya agentligi bildirgan⁵. Bu esa Markaziy osiyo davlatlari orasida eng katta ko'rsatkich hisoblanadi.

Mazkur holatni esa **Pastel usuli** yordamida ya'ni O'zbekiston migratsiya muammolarini tahlil qilish quyidagi jihatlarni birma-bir ko'rib chiqamiz. (*PESTEL har bir jihatiga alohida tahlil*)

P* Siyosiy omillar ko'pgina mamlakatlar siyosiy beqarorlik, fuqarolik urushlari, korruptsiya va inson huquqlari buzilishidan aziyat chekmoqda. Ushbu omillar odamlarni xavfsizlik va barqarorlikni izlash uchun o'z vatanlarini tark etishga majbur qilishi mumkin.

E* Iqtisodiy omillar yuqori ishsizlik, kam ish haqi, infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi va boylikningadolatsiz taqsimlanishi xalqaro migratsiyaning sabablari bo'lishi mumkin. Odamlar boshqa joylarda eng yaxshi iqtisodiy imkoniyatlarni topish uchun o'z mamlakatlarini tark etishlari mumkin.

S* Sotsiologik omillar muhojirlar ko'pincha yangi muhitga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan, til to'sig'i, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning etishmasligi, kamsitish va ijtimoiy izolyatsiya. Ushbu muammolar ularning moslashishini va yangi mamlakatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini qiyinlashtirishi mumkin.

T* Texnologik omillar Texnologik omillar O'zbekistonning migratsiya muammolarini tahlil qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda Ma'lumotlarni

⁵ <https://labormigration.uz/news/show/1596> "mehnat migrantlarining muammolari ularni hal qilishga barchamiz birdekkarakat qilishimiz lozim" nomli Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bosh yuriskonsulti Rustam Atovulloyevning maqolasidan olindi.

yig'ish va qayta ishlash kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda O'zbekiston aholisining migratsiyasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni samarali to'plash va tahlil qilish mumkin. Bu migratsiya oqimlari haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishga, eng muhim tendentsiyalar va muammolarni aniqlashga imkon berishi va Migratsiya oqimini modellashtirish borasida zamonaviy texnologiyalar yordamida iqtisodiy vaziyat, siyosiy barqarorlik va iqlim sharoiti kabi turli omillar asosida migratsiya oqimlarini bashorat qilish uchun kompyuter modellarini yaratish mumkin. Bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'rishga va ularni oldini olish strategiyasini ishlab chiqishga yordamini aytib o'tishim mumkin.

E* Atrof-muhit omillari O'zbekistonning migratsiya muammolarini tahlil qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatishida quydagi jihatlarni aytib otish lozim, avvalo Iqlim o'zgarishi- O'zbekiston qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lgan jamiyat bo'lib, iqlim o'zgarishi mamlakat qishloq xo'jaligi mahsuldarligi va iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Keyingisi Ekologik muammolar bo'lib O'zbekiston suv resurslarining tiqilib qolishi, cho'llanish va havoning ifloslanishi kabi bir qator ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolar yashash va ishlash uchun mos bo'limgan sharoitlarni yaratishi mumkin, bu esa migratsiyaga ham hissa qo'shishi mumkin. So'ngisi esa Aholining o'sishi hisoblanib, O'zbekistonda aholining tez o'sishi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, barcha aholining farovonligini ta'minlash uchun ishchi kuchi va resurslarning etishmasligi. Bu hayotning yaxshi imkoniyatlarini izlash uchun ko'proq migratsiyaga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning migratsiya muammolariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillarda biri bu albatta Huquqiy omillar bo'lib ulardan asosiylari sifatida quydagilarni aytishim mumkin.

a) Migratsiya qonunchiligi: O'zbekistonda migratsiyani tartibga soluvchi qonunlar mamlakatdagi migratsiya holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular ishlash va yashash uchun ruxsat olish tartibini belgilashlari va mamlakatga kirish va chiqish talablarini belgilashlari mumkin. Qonunchilikdagi turli xil o'zgarishlar mamlakatdagi migrantlar soni va sifatiga ta'sir qilishi mumkin.

b) Xalqaro shartnomalar: O'zbekistonning xalqaro migratsiya shartnomalaridagi ishtiroki mamlakatning migratsiya muammolariga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu shartnomalar migrantlarning qaytishi, migrantlarning huquqlarini

himoya qilish va boshqa mamlakatlar bilan migratsiya masalalari bo'yicha hamkorlik qilish bilan bog'liq masalalarni tartibga solishi mumkin.

c) Diniy omillar: madaniy va diniy farqlar migratsiya muammolarida rol o'ynashi mumkin. Qochqinlar va muhojirlar, agar ular millati, dini yoki etnik kelib chiqishi tufayli ta'qib yoki kamsitishlarga duch kelsalar, mamlakatni tark etishlari mumkin.

Hozirgi migratsiya muammolarini olimlar fikrlari asosida tahlil qilish:

Demograf Everett S. Li modeliga ko'ra dunyo bo'ylab migratsiyani keltirib chiqaradigan omillarni ikki guruhga bo'linadi. Bular 1) o'z davlatidan "qochish"ga va boshqa davlatga borishga bo'lgan omillarni aytib o'tgan.

O'z davlatidan "qochish" omilli-bu odam yashaydigan uy maydoniga nisbatan noqulay bo'lgan narsalardan uzoqlashish.

Boshqa davlatga borish omilli-bu boshqa hudud yoki maydoniga jalb qiladigan narsalarga aytib o'tgan⁶.

O'z davlatidan "qochish" omillini paydo qiluvchi asosiy jihatlar quydagilar;

• Ish yetarli emas	• Boylikni yo'qotish
• Imkoniyatlар kam	• Tabiiy ofatlar
• Chaqiruv (yigitlarni armiyaga chaqirish)	• O'lim tahdidlari
• Ochlik yoki qurg'oqchilik	• Ko'proq siyosiy yoki diniy erkinlik istagi
• Ta'qiblardan siyosiy qo'rquv	Ifloslanish
• Yomon tibbiy yordam	• Boylikni yo'qotish

Boshqa davlatga borish omillini paydo qiluvchi asosiy jihatlar esa quydagilar;

• Ish imkoniyatlari	• jozibali iqlim
• Yaxshi yashash sharoitlari	• Xavfsizlik
• Ko'proq siyosiy yoki diniy erkinlikka ega bo'lism hissi	• Oilaviy aloqalar
• Lazzatlanish	• Sanoat
• Ta'lim	• Uylanish ehtimoli yaxshiroq

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Human_migration#cite_note-77 Demograf Everett S. Li nazariyasi haqida ma'lumotlar asosida yozildi.

Umumiy olganda Migratsiya dunyodagi barcha mamlakatlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan global jarayonlardan biridir. Zamonaviy sharoitda migratsiya tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib, yangi muammolar va muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu asosda ***Migratsiya muammolarini ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin: bular;***

- a) Migrantlar mehnatidan foydalanish, ularni mehnat bozoriga integratsiya qilish va ijtimoiy himoya bilan bog'liq **iqtisodiy muammolar.**
- b) Muhojirlarning yangi jamiyatga moslashishi, ularning mahalliy aholi bilan o'zaro munosabati, jinoyatchilik va ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish bilan bog'liq **ijtimoiy muammolar.**

Migratsyaning iqtisodiy muammolari deganda - migrantlar mehnatidan foydalanish, ularning mehnat bozoriga qo'shilishi va ijtimoiy himoya bilan bog'liq ya'ni asosiy muammolardan biri shundaki, migratsiya mehnat bozorida nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Agar migrantlar mamlakatga past malakali ishlarni bajarish uchun jalb qilinsa, bu mahalliy aholi uchun ish haqi va mehnat sharoitlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar muhojirlar mamlakatga yuqori malakali ishlarni bajarish uchun jalb qilinsa, bu ish o'rinnari uchun raqobatga va mahalliy aholining turmush darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Yana bir muammo shundaki, migrantlar ko'pincha ijtimoiy himoyadan foydalana olmaydilar, bu ularning marginallashishiga va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin.

Migratsyaning ijtimoiy muammolari deganda - muhojirlarning yangi jamiyatga moslashishi, ularning mahalliy aholi bilan o'zaro ta'siri, jinoyatchilik va ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish bilan bog'liq. Asosiy muammolardan biri shundaki, muhojirlar ko'pincha mahalliy aholi tomonidan kamsitish va murosasizlikka duch kelishadi. Bu ijtimoiy keskinlik va mojarolarga olib kelishi mumkin. Yana bir muammo shundaki, migrantlar ko'pincha qabul qiluvchi mamlakatning tili va madaniyatini bilishmaydi, bu ularning jamiyatga integratsiyalashuvini qiyinlashtiradi. Bu ijtimoiy izolyatsiya va marginallashuvga olib kelishi mumkin⁷.

Yuqoridagilar asosida O'zbekistonda migratsiya muammolarini ham taqqoslash yoki bu bo'yicha quydagi fikrlarni aytib o'tishim mumkin. Bularga O'zbekiston migratsiya faolligi yuqori bo'lgan mamlakatlardan biridir. BMT ma'lumotlariga

⁷ XMT tomonidan 2023 yilda tayyorlangan "dunyo migratsiyasi: tendentsiyalar, qiyinchiliklar va imkoniyatlar" hisoboti.

ko'ra, 2022-yilda dunyoda xorijda yashovchi 3,6 millionga yaqin O'zbekistonlik bor ekani va O'zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya va BAA hisoblanishi qo'shimchasiga O'zbekistondan mehnat migratsiyasi ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib kelishini alohida e'tirof etishim joiz deb bilaman⁸.

Bundan tashqari bir tomondan, mehnat migratsiyasi O'zbekiston uchun valyuta tushumlarining muhim manbai hisoblanadi. Boshqa tomondan, mehnat migratsiyasi malakali kadrlarning chiqib ketishiga olib keladi va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda migratsiya muammolarini hal etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Xususan, chet el fuqarolari uchun ishslash uchun ruxsat olish tartibini soddalashtirish, shuningdek, mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish choralar ko'rileyotganini alohifa e'tiborga olish zarur deb hisoblayman.

XULOSA

Majud mavzu ya'ni aholi migratsiyasining hozirgi kunda Aholi migratsiyasining O'zbekiston Respublikasiga ta'siri hozirgi kunda noaniq. Bir tomondan, mehnat migratsiyasi mamlakat uchun valyuta tushumlarining muhim manbai bo'lib, ishsizlikni kamaytirishga va aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.. Boshqa tomondan, migratsiya malakali kadrlarning chiqib ketishiga olib keladi va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'znekiston Respublikasiga ta'siri haqida bildirilgan fikrlar va olimlarning fikri asosida shuni ham aytib o'tishim joizki bu boradagi mavjud muommolarni yaxshilash uchun quydagi takliflarni bildirib o'tishim lozim deb hisoblayman va quydagi takliflarimni bildiraman. Bunda eng asosiysi aholi migratsiyasining

⁸ O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi migratsiya tadqiqotlari markazi tomonidan 2022 yilda tayyorlangan "O'zbekistondan mehnat migratsiyasi: holati va istiqbollari" tadqiqoti ma'lumotlari asosida yozildi.

O'zbekiston Respublikasiga ta'sir qilishi to'g'risidagi mavjud muammolarni yaxshilash uchun hozirgi vaqtida quyidagi choralarni ko'rish zarur:

Migrantlar mehnatidan muvozanatli foydalanish bo'yicha; Hozirgi vaqtida O'zbekistonda xorijda ish bilan band bo'lgan malakali kadrlarning chiqib ketishi kuzatilmoxda. Ushbu muammoni hal qilish uchun O'zbekistonda malakali mutaxassislarning ishlashi va yashashi uchun jozibali sharoitlar yaratish zarur. Bunga mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish, ish haqi darajasini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali erishish mumkin.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash va migrantlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha; Chet elda ishlaydigan muhojirlar ko'pincha yomon ish sharoitlari va ijtimoiy himoyaning etarli emasligiga duch kelishadi. Bu ularning marginallashishiga va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun qabul qiluvchi mamlakatlarda muhojirlarning huquqlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek, ularga ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur.

Migrantlarning jamiyatga integratsiyasini yaxshilash bo'yicha; Muhojirlar ko'pincha mahalliy aholi tomonidan kansitish va murosasizlikka duch kelishadi. Bu ijtimoiy keskinlik va mojarolarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun muhojirlarga nisbatan bag'rikenglik va bag'rikenglikni targ'ib qilish, shuningdek ularni qabul qiluvchi jamiyatga integratsiya qilish uchun sharoit yaratish zarur.

Jinoyatchilik va ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha; Migratsiya jinoyatchilik va ekstremizmning tarqalishiga yordam berishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun migratsiya oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek, muhojirlar o'tasida jinoyatchilik va ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish zarur⁹.

⁹ O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi huzuridagi migratsiya tadqiqotlari markazi tomonidan

"Migratsyaning turli jihatlarini, jumladan, uning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va siyosiy oqibatlari"ni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolasi asosida ushbu takliflarni berishga qaror qildim.

Ushbu takliflarni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar zarur albatta bo'lmasa bu aytgan takliflarim shunchaki qog'ozda qolib ketmasligi hech gap emas, va bu chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim deb hisoblayman.

- a)** Migrantlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish. Bu O'zbekistonda malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni yaratishga va malakali kadrlarning chet elga chiqib ketishini kamaytirishga yordam beradi.
- b)** Muhojirlarni moslashtirish markazlarini yaratish. Bu muhojirlarga mezbon mamlakatlardagi hayotga moslashishga va integratsiya muammolaridan qochishga yordam beradi.
- c)** Muhojirlarga nisbatan bag'rikenglik va bag'rikenglikni targ'ib qilish. Bu jamiyatda muhojirlar uchun qulay muhit yaratishga va ijtimoiy keskinlik xavfini kamaytirishga yordam beradi.
- d)** Noqonuniy migratsiya to'g'risidagi qonunchilikni kuchaytirish. Bu mamlakatga xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan noqonuniy muhojirlarning kirib kelishining oldini olishga yordam beradi.

O'ylaymanki ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi aholi migratsiyasining O'zbekiston Respublikasiga salbiy ta'sirini minimallashtiradi va uning mamlakat taraqqiyoti uchun salohiyatidan foydalanadi deb umid qilaman. Sababi aholi migratsiyasining yanaytam yaxshilanishi albatta O'zbekiston Respublikasi va uning fuqorolari uchun xar tamonlama manfaatli bo'ladi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ilmiy manbalar

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Universitetda xalqaro munosabatlar va xalqaro migratsiya jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi
2. Xalqaro ommaviy huquq darslik 2022-yil TDYU
3. O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi huzuridagi migratsiya tadqiqotlari markazi tomonidan "**Migratsiyaning turli jihatlarini, jumladan,**

uning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va siyosiy oqibatlari”ni o’rganishga bag’ishlangan ilmiy maqolasi

4. Demograf Everett S. Li nazariyasi borasida ilmiy maqola
5. XMT tomonidan 2023 yilda tayyorlangan “dunyo migratsiyasi: tendentsiyalar, qiyinchiliklar va imkoniyatlar” hisoboti.
6. “Mehnat migrantlarining muammolari ularni hal qilishga barchamiz birdek harakat qilishimiz lozim” nomli Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bosh yuriskonsulti Rustam Atovulloyevning maqolasi
7. O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi migratsiya tadqiqotlari markazi tomonidan 2022 yilda tayyorlangan “O‘zbekistondan mehnat migratsiyasi: holati va istiqbollari” tadqiqoti ma’lumotlari
8. BMT tomonidan 2021 yilda tayyorlangan “migratsiya va rivojlanish” nashri ma’lumotlari

Elektron manbalar

1. O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi migratsiya va demografiya institutning Rasmiy veb-sayti <https://imd.uz/> ma’lumotlari
2. O‘zbekiston migratsiya va taraqqiyot tadqiqotlari markazi (MIRTS)ning-Rasmiy veb-sayt: <https://migrationcenter.uz/uz/> ma’lumotlari
3. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ning Migratsiyaga oid bo’lgan nashrlar to’plami <https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration/publications/lang--ru/index.htm> sayt ma’lumotlari
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aholi_migratsiyasi haqida maqola